O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



SANOAT SALOHİYATI VA OMILLAR UNUMDORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK BAHOLASH USULLARI

Kasimov Azamat Abdukarimovich

PhD. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Yashil” iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat salohiyati va uning tarkibi, omillar unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar hamda ularni iqtisodiy-statistik baholash usullari yoritib berilgan. Xususan, ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning natijaviy samaradorligini baholash uchun funktsional-salohiyatli, natijaviy-maqsdali va optimizatsion yondashuvlari keltirilgan. Shuningdek, sanoat salohiyatidan samarali foydalanishda omillar unumdorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, sanoat salohiyati, omillar unumdorligi, iqtisodiy-statistik baholash usullari, samaradorlik, tahlil.

Abstract: This article describes the industrial potential and its structure, indicators representing factor productivity and their economic-statistical evaluation methods. In particular, functional-analytical-competent, result-targeted and optimization approaches are presented to evaluate the resulting effectiveness of the use of production potential. Also, proposals for increasing the productivity of factors in the effective use of industrial potential have been developed.

Key words: industry, industrial potential, factor productivity, economic-statistical assessment methods, efficiency, analysis.

Аннотация: В статье описаны промышленный потенциал и его структура, показатели, отражающие факторную производительность, и методы их экономико-статистической оценки. В частности, представлены функционально-аналитически-компетентный, результативный и оптимизационный подходы к оценке результирующей эффективности использования производственного потенциала. Также разработаны предложения по повышению продуктивности факторов эффективного использования промышленного потенциала.

Ключевые слова: промышленность, промышленный потенциал, факторная производительность, методы экономико-статистической оценки, эффективность, анализ.

KIRISH

Rivojlanishning bugungi sharoitida xalqaro bozorlarda innovatsiya darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlarga talab oshib bormoqda. Xususan, fan-texnika sig'imi yuqori mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, deyarli barcha mamlakatlarda yuqori texnologiyali sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va uni yanada taraqqiy ettirish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Ma'lumki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari (subtarmoqlar) muhim ahamiyatga ega. Chunki, sanoat asosida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqariladi, shuningdek iqtisodiyotning boshqa sohalarida yaratilgan xom ashyolarni qayta ishlash va shu tarmoqlarda foydalaniladigan aksariyat vositalar aynan sanoatda ishlab chiqariladi. Shunday ahamiyatga ega bo'lgan sanoat tarmog'ini samaradorligini intensiv shaklda oshirish va omillar chekli unumdorligining pasayish holatlarini baholash hamda uni bartaraf etish sanoatda umumiy samaradorlikning oshishini hamda sanoat salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bu sanoatda omillar unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida ifodalanadi va ularni iqtisodiy-statistik usullar asosida baholanadi. O'z navbatida, yuqoridagilar mazkur mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoatda omillardan foydalanish samaradorligini oshirish tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga ahamiyatli darajada ta'sir etadi va bu o'ta murakkab ko'p bosqichli jarayon bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunga qadar jahondagi biror mamlakat yoki xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan sanoat tarmog'ida omillardan samarali foydalanishni ifoda etuvchi yagona ko'rsatkich qabul qilinmagan. Bu esa o'z navbatida tarmoq ishlab chiqarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab olishni talab etadi.



“Salohiyat” tushunchasi lotin tilidan kirib kelgan bo‘lib, “potentia” – kuch degan ma‘noni anglatadi ^[1]. Biroq mazkur tushunchaning yagona umumqabul qilingan ta‘rifi mavjud emas. “Salohiyat” tushunchasi barcha mumkin bo‘lgan imkoniyatlar darajasining jamlanmasini o‘zida ifoda etadi va turli tushunchalarga nisbatan turlicha “salohiyat” so‘zi qo‘llaniladi. Masalan, iqtisodiy salohiyat, tabiiy xom ashyo salohiyati, innovatsiya salohiyati, investitsiya salohiyati, eksport salohiyati, sanoat salohiyati, ishlab chiqarish salohiyati va hokazo ^[2].

“Iqtisodiy salohiyat” – jamiyatni moddiy va inson resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasini, ulardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlarning hali mavjudligini anglatadi hamda ana shu imkoniyatlar miqyosi bilan baholaniadi ^[3].

Sh. X. Nazarov tadqiqotlarida sanoat salohiyatiga alohida e‘tibor qaratiladi va uning asosiy maqsadi sifatida, sanoat mahsulotining mehnat unumdorligini oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda sanoatning assortiment bazasini diversifikatsiyalash masalalari esa, uning vazifalari sifatida e‘tirof etiladi ^[4].

A. P. Svinsova o‘z tadqiqotlarida esa, sanoat salohiyatini quyidagicha tasniflashtiriladi ^[5]:

1. Fond salohiyati:

- a) texnik va texnologik salohiyat;
- b) ilmiy texnik salohiyat (innovatsion salohiyat va informatsion salohiyat);
- d) investitsion salohiyat (korxonalarning ichki xususiy mablag‘lardan foydalanish salohiyati, investitsion jozibadorlik salohiyati).

2. Kadrlar salohiyati:

- a) ijtimoiy salohiyat;
- b) professional o‘shish salohiyati;

3. Mahsulot salohiyati:

- a) sotilgan mahsulot salohiyati;
- b) mahsulot sifatining salohiyati;
- d) korxonani diversifikatsiyalash salohiyati – yangi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari.

Ishlab chiqarish salohiyati – bu iqtisodiy tizimning (mamlakat, hudud, kompaniya, korxona) muayyan ishlab chiqarish omillari hajmida mumkin bo‘lgan maksimal ishlab chiqarish hajmi va imkoniyatlar darajasi bo‘lib, u tizimning texnologik taraqqiyot darajasini o‘zida ifoda etadi ^[6].

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, mazkur tuzilishning asosini ishlab chiqarish omillari tashkil etadi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ishlab chiqarish salohiyatining o‘zagini ishlab chiqarish tushunchasi tashkil etadi. O‘z navbatida, salohiyat sanoat tarmog‘i yoki sanoat korxonalarining ishlab chiqarish omillari bilan qay darajada ta‘minlanganligini ham o‘zida ifoda etadi.

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakat, hudud va tarmoq darajasida qaralganda bir – biridan farqlanadi. N. To‘xliyevning fikriga ko‘ra, “salohiyat tushunchasi (iqtisodiyotda) ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zaxiralarni anglatadi. Makro darajada yalpi iqtisodiy salohiyat deganda, ichki va tashqi bozorlar talabiga muvofiq milliy iqtisodiyotning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish maksimal mumkin darajadagi qobiliyati tushuniladi” ^[7].

Ijtimoiy ishlab chiqarish va iste‘molning texnik darajasi, hajmi va tarkibi, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning sifati, shuningdek, hududda va chet ellarda jamg‘arilgan qiymatlar, mehnat va tabiat resurslari hududning yalpi iqtisodiy salohiyatini rivojlanish darajasini belgilaydi.

Sanoat tarmog‘ida omillardan samarali foydalanish faqatgina ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligiga emas, balki sanoat tarmog‘i korxonalarida amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish siyosati samaradorligiga ham bevosita bog‘liqdir.

Sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarish siyosatining bir tomoni ishlab chiqarish maqsadlarini hisobga olishi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, omillar chekli unumdorligi darajasini ham inobatga olmoq‘i lozim. Shuningdek, bu borada balanslashtirilgan ishlab chiqarish siyosatini ishlab chiqarish maqsadga muvofiq bo‘lib, buning birinchi qadami optimal ishlab chiqarishga nisbatan professional yondashuvni amalga oshirishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sanoatda omillar unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni baholash usullari bo‘yicha empirik tadqiqotlar hamda nazariy qarashlar o‘rganilgan. Tadqiqotda empirik va nazariy jihatdan tahlil va sintez, deduksiya va induksiya usullaridan, shuningdek, mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlar ishlaridan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat salohiyati iqtisodiy kategoriya sifatida murakkab tushuncha bo'lganligi bois, uni tashkil etuvchilari ham ko'plab unsurlardan iborat bo'ladi. Shuning uchun biz dastlab, ishlab chiqarish salohiyatini, so'ngra esa, undan foydalanish darajasini baholash masalalarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish sanoat tarmog'ida bir vaqtning o'zida barcha ega bo'lingan resurslardan ratsional foydalanish orqali yuqori yakuniy natijaga erishishni ko'zda tutadi. Turli ilmiy manbalarda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni baholash uchun turli usul va uslubiyotlar qo'llaniladi. Masalan, ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning natijaviy samaradorligini baholash uchun funksional – salohiyatli, natijaviy – maqsadli va optimizatsion yondashuvlar qo'llaniladi [8]:

- Funksional-salohiyatli yondashuv:

$$R_{ep} = f(P_v - F_v) \rightarrow \min H_n \quad (1)$$

Bunda P_v – tarmoqning salohiyatli imkoniyatlari, F_v – amalda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasi, H_n – ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasidan yo'qotishlar.

Agar $P_v = F_v$ bo'lsa, u holda salohiyatli imkoniyatlardan to'liq foydalanilayotgan holat yuzaga keladi.

- Natijaviy – maqsadli yondashuv:

$$R_{ep} = Ef_{ep} / Ts \quad (2)$$

Bunda Ef_{ep} – samaradorlik kattaligi (rejalashtirilgan, prognozlangan, amaldagi) bo'lib, qaysiki u qiymat yoki natural shaklda ifodalanadi, Ts – rejalashtirilgan, prognozlangan yoki tarmoq faoliyatining (qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda) amalga oshirilgan maqsadini o'zida ifoda etadi.

Optimizatsion yondashuv – tarmoqdagi o'zgaruvchan xarajatlarni minimallashtirish hisobiga ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini optimallashtirish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish salohiyati, shu jumladan, uning tarkibidan foydalanish samaradorligini baholashda resurs – salohiyati yondashuvidan ham foydalaniladi.

Resurs salohiyati yondashuvi asosida tarmoqning ishlab chiqarish salohiyatidan (shu jumladan uning tarkibidan) foydalanish samaradorligini aniqlashda integral baholash qiymatidan foydalaniladi va u samaradorlikning o'zgaruvchan resurslar qiymati (R_p)ga nisbati orqali aniqlanadi hamda quyidagicha topiladi:

$$Ef_{ep} = E_p / R_p \quad (3)$$

Ayrim ilmiy manbalarda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini baholash uchun uni tashkil etuvchi unsurlaridan samarali foydalanishni baholash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi [9]. Ishlab chiqarish salohiyatining katta qismini asosiy fondlardan samarali foydalanish masalasi tashkil etadi. Quyida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishning muhim ko'rsatkichlari tahlil etiladi:

1. Fond qaytimi. Mazkur ko'rsatkich asosiy fondlarning 1 so'miga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini o'zida ifoda etadi. Qaysiki, mazkur ko'rsatkichning o'sib borishi asosiy fondlardan samarali foydalanilayotgan holatni bildiradi va quyidagicha topiladi:

$$FQ = \frac{ICHH}{AFO'YQ} \quad (4)$$

Bunda FQ – fond qaytimi, $ICHH$ – ishlab chiqarish hajmi, $AFO'YQ$ -asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

Haqiqatdan ham sanoat tarmog'ida asosiy ishlab chiqarish fondlarining holati qancha yaxshi bo'lsa, u holatda mazkur tarmoq o'zining texnologik salohiyatidan mumkin qadar yanada to'liqroq foydalanishga harakat qiladi va buning hisobiga ishlab chiqarish hajmi ortib boradi.

Fond qaytimiga teskari bo'lgan ko'rsatkich bu – fond sig'imidir. Fond sig'imi ishlab chiqarilgan 1 so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarining puldagi ifodasini tashkil etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, fond qaytimining oshib borishi ishlab chiqarishning samaradorligini ifoda etsa, fond sig'imining yillar davomida o'sib borishi esa, ishlab chiqarishda samarasiz holatni o'zida ifoda etadi va u quyidagicha aniqlanadi [10]:

$$FS = \frac{AFO'YQ}{ICHH} \quad (5)$$

Bunda FS – fond sig'imi, $ICHH$ – ishlab chiqarish hajmi, $AFO'YQ$ – asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini ifoda etuvchi navbatdagi muhim ko'rsatkich bu – ishlab



chiqarishni fond bilan qurollanish darajasidir. Fond bilan qurollanish darajasi sanoat ishlab chiqarishda band bo'lgan 1 ta xodimga to'g'ri keladigan asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$FQU = \frac{AFO'YQ}{SIUS} \quad (6)$$

Bunda FQU – fond bilan qurollanish, AFO'YQ – asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, SIUS – sanoat ishlab chiqarishda band bo'lgan ishlovchilar soni.

Asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy eskirishi mumkin. Jismoniy eskirish – asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida foydalanish natijasida tez yemirilishidir. Ma'lum vaqt o'tishi bilan ular ishga jismoniy yaroqsiz bo'lib qoladi va yangisi bilan almashtiriladi yoki ayrim qismlari kapital ta'mirlanadi.

Ma'naviy eskirish sababi ikki xil bo'ladi; birinchidan, yangi, ancha unumli mashinalar kashf etilishi va ularning ishlab chiqarishga joriy qilinishi eskirgan mashinalarning jismoniy yeyilish muddati to'lmashdan qadrsizlanganligi va ma'naviy eskirganligini bildiradi. Ikkinchidan, texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligining o'sishi ishlab turgan mashinalar qiymatining kamayishiga olib keladi.

Demak, asosiy ishlab chiqarish fondlari asta – sekin eskirib boradi va buning natijasida sanoat tarmog'ining ishlab chiqarish salohiyati shunga mos ravishda pasayib boradi.

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarilishi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi [11]:

- asosiy fondlarning eksplutatsiyasi, jismoniy va texnik holati;
- ularning yangilanish sur'ati;
- asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari.

Asosiy fondlarning eksplutatsiya holati ularni faqat aktiv qismi, ya'ni ish va kuch mashinalari, asbob-uskunalar uchun aniqlanadi. Fondlarning jismoniy holati ularning yemirilishi va yaroqlilik koeffitsiyentlari bilan xarakterlanadi.

Emirilish koeffitsiyenti:

$$K_{ym} = \frac{F - F^1}{F} \quad (7)$$

Bunda F – asosiy fondlarning to'liq bahosi, F¹ – asosiy fondlarning qoldiq bahosi.

Agar 1 sonidan yemirilish koeffitsiyentini ayirib tashlasak, u holda yaroqlilik koeffitsiyenti kelib chiqadi:

$$K_{yaroq} = 1 - K_{ym}; \quad K_{yaroq} = \frac{F^1}{F} \quad (8)$$

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish sur'ati hamda ularning jismoniy va texnik holatlaridagi o'zgarish sur'atlarini xarakterlash maqsadida yangilanish va ishlab chiqarishdan chiqarib tashlangan fondlar koeffitsiyentlari hisoblanadi.

$$K_{yang} = \frac{F^1}{F_1}; \quad K_T = \frac{F_{ch}}{F_0}; \quad (9)$$

Har ikkala koeffitsiyentning bir – biriga yaqinlashuvi eski fondlarning yangi fondlar bilan almashinuvini, yangilanish koeffitsiyentining juda katta bo'lishi esa fondlarning kengaygan takror ishlab chiqarilayotganini xarakterlaydi.

Sanoat tarmog'ida ishlab chiqarish salohiyatining muhim unsuri hisoblangan mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari [12]:

- Birta ishlovchiga to'g'ri keladigan ishga chiqishlarning o'rtacha soni (T^{kun}), kun:

$$T^{kun} = \frac{T_{fakt}}{O'ISish} \quad (10)$$

Bunda T_{fakt} – amalda ishlangan davr (kun), O'ISish – o'rtacha ro'yxatdagi ishlovchilar soni (kishi).

- Ish kuni yo'qotilishining solishtirma vazni (U^{yqt}), foiz:

$$U^{yqt} = \frac{Y^{yq}}{T_{nom}} \quad (11)$$

Bunda Y^{yq} – ish kunining yo'qotilishi (soatlarda), T_{nom} – ish kunining nominal fondi (soatlarda).

- Ish kuni umumiy yo'qotilishi (ΔUY^{yq}), kishi-kun:

$$\Delta UY^{yq} = Y_{yk}^{yq} \cdot O'IS \quad (12)$$

Bunda Y_{yk}^{yq} – bir soatga to'g'ri keladigan ish vaqti yo'qotilishlarining soatlar soni, O'ISish – o'rtacha ro'yxatdagi ishlovchilar soni (kishi).

4. Ish vaqtining potensial fondi (T^{pot}), kishi-kun:

$$T_{pot} = T_{ish} \cdot OIS \quad (13)$$

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda sanoat tarmog'i ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlayotgan eng asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tarkibiy qayta tuzish, modernizatsiya va yuqori texnologiyali muhim ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishni tezlashtirishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosati.
2. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasini bosqichma – bosqich kengaytirish.
3. Mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab – quvatlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat tarmog'ini rivojlantirish, uning tizimidagi korxonalarning qimmatli qog'ozlariga kapital qo'yish, tarmog'dagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish va innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirish, yangi ishlab chiqarish obyektlarini qurish va ishlab chiqarishni kengaytirish, tarmoqni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash – birinchi navbatda ushbu tarmoqda investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishni talab etadi va mazkur jarayonda quyidagi ikki muammoga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

Birinchidan, sanoat tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilish muammosi. Agar jalb qilinayotgan investitsiyalar tarmoq korxonalarining o'z-o'zini moliyalashtirish mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda tarmoq korxonalarining taqsimlanmagan foydasi, amortizatsiya ajratmalari fondi, aksiyalar chiqarish hisobiga shakllantirilgan mablag'lar hamda maxsus fondlar faoliyatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Agar investitsiyalash tashqi, ya'ni xorijiy investitsiyalari va kreditlari hisobidan amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda – "sanoat tarmog'ining investitsion jozibadorligi"ni oshirish, mamlakatdagi investitsion muhit va iqlimni yanada yaxshilash hamda davlatning investitsiya siyosatini takomillashtirishni talab etadi.

Ikkinchidan, sanoat tarmog'ida jalb qilingan investitsiyalardan samarali foydalanish muammosi. Bu esa, quyidagi masalalarga yetarlicha e'tibor qaratishni talab etadi:

- sanoat tarmog'ida kiritilayotgan texnologiyalarning to'la quvvatlar bilan ishlashini ta'minlash;
- tarmoqqa yuqori malakali kadrlarni jalb etish va ularning malakasini muntazam ravishda oshirib borish;
- asosiy kapitalga kiritilgan 1 so'mlik investitsiyaga to'g'ri keladigan mahsulot qaytimini oshirish maqsadida tarmoqda investitsiya qaytimi yuqori bo'lgan yuqori texnologiyalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga investitsiyalar kiritishda nisbiy ustunlik va imtiyozlar berish;
- tarmoqda xorijiy investitsiyalari hisobiga tashkil etilayotgan yangi obyektlarning qurilish davrini qisqartirish va bu sohada investitsiya loyihalarini o'z vaqtida amalga oshirishdir.

XULOSA

Sanoatning rivojlanishi murakkab va uzoq muddatli jarayon bo'lib, sanoat tarmog'ining rivojlanishini bitta yoki bir necha ko'rsatkichlar bilan yaqqol ifoda etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mazkur jarayonda ko'rsatkichlar tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat uchun ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishda jalb etiladigan investitsiyalar bilan bir qatorda ushbu tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma holatining o'rni beqiyosdir. Sanoat infratuzilmasining tarkibiy qismi hisoblangan texnik xizmat ko'rsatish tuzilmasi (yordamchi ishlab chiqarish) – bu asosiy ishlab chiqarishni uzluksiz va samarali ishlashini ta'minlovchi tarkibi bo'lib, ularga ta'mirlovchi, energetik, transport, omborxona va boshqa xo'jaliklar kiradi hamda mazkur infratuzilmaning samarali ishlashi sanoatda ishlab chiqarish salohiyatining o'sishiga olib keladi. O'z navbatida, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foy-



dalanish sanoat tarmog'ida bir vaqtning o'zida barcha ega bo'lingan resurslardan ratsional foydalanish orqali yuqori yakuniy natijaga erishishni ko'zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дубков С., Дадалко С., Фоменок Д. Формирование и оценка экспортного потенциала промышленных предприятий. Банкаўскі веснік, КАСТРЫЧНИК 2011. – 29 с.
2. Ларионов А. О. Оценка промышленного потенциала региона. Проблемы развития территории. Вып. 2(76). 2015. – 46 с.
3. Qayumov A, Nazarova H., Egamberdiyev F., Yakubov O'. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. O'zMU. Toshkent – 2004. – 34 b.
4. Назаров Ш. Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов / Монография. Ш. Х. Назаров. Ташкент: IFMR, 2014. С. 184, 186-189, 201.
5. Свинцова А. П. Промышленный потенциал: понятие, критерии, структура. Экономический вестник УГНТУ / под ред. д.э.н. Родионовой Л. Н. // Сб. трудов УГНТУ, 2001. – С. 103-106.
6. Лопатников Л. И. Экономико-математический словарь: Словарь современной экономической науки. – 5-е изд., перераб и доп. – М.: Дело, 2003. – 291 с.
7. To'xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 25 b.
8. Романов А. П. и др. Управление экономическим потенциалом организации: учебное пособие – Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВПО "ТГТУ", 2012. – 73 с.
9. Куликов Н. И., Бажилин А. Э. Комплексная оценка производственного потенциала отраслей пищевой промышленности Тамбовской области. Проблемы современной экономики, N 3/4 (19/20), 2006.
10. Адамов В. Е. Статистика промышленности. Учебник. – М.: Финансы и статистика, –1987.
11. Nabiyeu X. N, Nabiyeu D. X, Ahmedova M. Sh. Sanoat statistikasi – (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2011 – 70 b.
12. Лашманова Ю. Ю. Система показателей оценки производственного блока производственного потенциала предприятия. Российское предпринимательство. Том 18. № 7 апрель 2017. – С. 1110 – 1116.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.